

O'ZBEK OILALARIDA IJTIMOIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI VORISIYLIK ASOSIDA SAQLAB QOLISH MEXANIZMLARI

Murotov Akmal Inoyatovich

Payariq tuman 17-umumta'l'm maktabi direktori

Annotatsiya:

Maqolada o'zbek oilalarida ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarni vorisiylik asosida saqlab qolish mexanizmlari haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek oilalari, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar, vorisiylik, urf-odatlar.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin dastlabki o'rtaga tashlangan eng dolzarb muammolardan biri ma'naviyat bo'ldi. Hozir ham bu muammo jamiyatimizning diqqat markazida. Zero, ma'naviyatsizlik har qanday jamiyatni tanazzulga olib borishi shubhasizdir. Shu bois milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, yoshlarda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash, o'z Vatani va xalqiga sodiq fuqarolarni shakllantirishga alohida ahamiyat berilgan. Xususan, yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an'analariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy shakl va vositalari ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilmoqda.

Darahqiqat, bugungi kunda yoshlar axloqiy madaniyatini milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asosida shakllantirish har qachongidan ham dolzarblashib bormoqda. Madaniyat asli arabcha so'zdan olingan bo'lib, shaharlik, ta'lim-tarbiya ko'rgan degan manolarni anglatadi. Madaniyat alohida individning hayot faoliyati (shaxsiy madaniyat), ijtimoiy guruhning yoki jamiyatning hayot faoliyati usulini aks ettiradi. Dastlab madaniyat tushunchasi insonning tabiatga maqsadagi muvofiq ta'siri (yerni ishla va x.k.), hamda insonning o'zini tarbiyalash va o'qitish ma'nolarini ifodalagan. Keyinchalik madaniyat tushunchasi orqali svilizasiya bilan bog'liq mazmun tushunila boshlandi.

Axloq va axloqiylik muammolari insonning ijtimoiy munosabatlarida muhim o'r'in tutgani bois, bu masala azaldan yetuk faylasuflar, allomalarining diqqat-e'tiborida turgan. Chunonchi, o'z asarlarida inson axloq normalarini egallasagina ma'naviy kamolotga erishishi mumkinliini ta'kidlagan Abu Nasr Forobiy axloqiy kamolot shartlari va asoslarining sharhiga alohida to'xtalib, axloqiy kamolotga erishish, avvalo, shaxs jamiyat a'zolari bilan faoliyatda mushtarak-mutanosib bo'lsa, uning ongida nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy manfaatlarga ham moyillik yuzaga kelishi orqali amalga oshishini ko'p bor tilga oladi.

Buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy axloqiylik insonning kishilarga, jamiyatga va o'z-o'ziga real, amaliy munosabati asosida shakllanishini ta'kidlaydi. Beruniy insonni oliy mavjudot sifatida tavsif etar ekan, Alloh unga inoyat etgan aql-zakovatga munosib bo'lmog'i kerakligini

bayon etib, insondagi noxush axloqsizlik, badfe'llik, avvalo, uning o'zi uchun, qolaversa, jamiyat uchun katta musibat keltirishini uqtiradi.

Shu bois jamiyat taraqqiyoti uchun zarur hisoblangan axloqiy qadriyatlarning egallanishi, insonning amaliy faoliyatda ularga amal qilishi - axloqiy madaniyatning asosiy mohiyatini tashkil qiladi.

Axloqiy madaniyat olamni ma'naviy-amaliy anglashning zarur vositalaridan biri sifatida ma'lum qadriyatlarga yo'nalganlikni, faoliyat me'yorlari va sabablarini, insonlararo munosabatlarning o'ziga xos shakllarini qamrab olgan holda, ularni asoslab beradi. Axloqiy madaniyatning muhim omili bo'lgan axloqiy ong o'z navbatida u yoki bu holatda nafaqat qanday yo'l tutish kerakligini, balki vaziyat taqozo ettan vazifani qanday amalga oshirish zaruratini ham tushunishga imkon yaratadi. "Axloqiy madaniyat o'z ichiga axloqiy qoidalar, tamoyillar qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni yani axloqiy ongni, ularni ro'yobga chiqarish, singdirish, himoya qilish bilan bog'liq faoliyat va munosabatlarni qamrab oladi. Sodda qilib aytganda, axloqiy madaniyat deganda, mavjud axloqiy meyorlarni o'zlashtirish va rioya qilish darajasi tushuniladi."¹

Axloqiy madaniyatga, avvalo, tarbiya va o'z-o'zini tarbiya qilish mahsuli sifatida qarash, shu bilan birga, unga erishgan shaxs turli ijtimoiyy muhitlar stixiyasi va favqulodda sodir bo'lgan hodisalar zarbidan o'zini yo'qotib qo'ymasligini ham ta'kidlash joiz.

Bu jarayon maktab, oila va boshqa tarbiya dargohlari kutganidan o'zgacha ham bo'lishi mumkin. Binobarin, shaxsning axloqiy madaniyatini qandaydir qotib qolgan omil ko'rinishi sifatida emas, balki muntazam yuksalib va boyib boruvchi, hatto axloqning zavol topishi yo'liga kirib qolishi ehtimoli bor bo'lgan jarayon sifatida ham tushunmoq lozim.

Axloqiy qadriyatlar iqtisodga, jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotiga va madaniyatning boshqa ko'rinishlariga nisbatan nisbiy mustaqillikka ega ekani tabiiy. Huquqiy me'yorlar, odat va an'analar, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy muassasalar, san'at va shu kabilar zinhor axloqiy adriyatlardan holi bo'lgan holatda amal qilmaydi, bu holat esa o'z navbatida shaxsning axloqiy madaniyati shakllanishiga sezilarli ta'sir etadi. Axloqiy qadriyatlar shakllanishida unga ijtimoiy me'yorlar ta'sir ko'rsatishini alohida ta'kidlash joiz. Jamiyatdagi umumiy tartiblar, ijtimoiy -me'yorlar tarzida, insonning ularga qay tariqa rioya qila borishi, ularni qay darajada o'zlashtirishi, ularning individual ongida qay tarzda aks etishi tufayli ichki uyg'otuvchi omillarga aylana boradi. Fuqarolar axloqiy madaniyatining o'ziga xos tarzda shakllanishiga xalqlarning hayot tarzi, ular yashayotgan muhit, urf-odat va an'analar kuchli ta'sir etishini ham nazardan qochirmaslik lozim.

Tabiiy muhit, yashash tarzi, diniy e'tiqod va shu kabilar ta'sirida yuzaga kelgan axloqiy ongning o'ziga xosligi axloqiylikning etnik xususiyatini tashkil etadi. Ta'kidlash joizki, axloqiy madaniyatning shakllanishida milliy davlatchilik shakllanishi va rivojining ahamiyati

¹ Очилдиев А. Маданият фалсафаси. "Мухаррир нашриёти", Тошкент: 2010. Б- 33.

kattadir. Zero, ayni davlat xalqlar hayotida talay mutaraqqiy axloqiy urf-odatlarni qonunlashtiradi va shu asosda o'z taraqqiyoti uchun qonunlashtirilgan xulqiy asoslarni yaratadi. Bizning nazarimizda, hozirgi kunda axloqiy madaniyat inson hayotini boy botiniy mazmun bilan, yuksak ijtimoiy mantiq bilan to'ldiradi, unga to'laqonlilik bag'ishlaydi, jamiyatda uchrab turuvchi ijtimoiy taraqqiyotga to'siq bo'lувчи xurofot va illatlar, salbiy odatlardan holi bo'lishga, yangi hayot faoliyati shakllarini joriy qilishga imkon yaratadi.

Axloqiy madaniyat darajasini oshirish zaruriyati hozirgi sharoitda mustaqil O'zbekistonning mafkuraviy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun ham muhim hisoblanadi. Shaxsning axloqiy madaniyati mohiyati uning individual ongini va amaliy axloqiy faoliyatini milliy va umuminsoniy tamoyillar darajasiga olib chiqilishi bilan alohida xususiyatga egadir. Ayni vaqtida shaxsning axloqiy madaniyati ko'p qirrali qadriyat bo'lib, uning asosiy xususiyatlari axloqiy bilimlar, his-tuyg'u, e'tiqod va amaliy ishlarda namoyon bo'ladi.

Darhaqiqat axloq bo'lmasa inson ijtimoiy shaxs sifatida shakllanmaydi. Faqat yetuk axloqgina kishilarda hayotning mazmuni va maqsadi to'g'risda xaq tushunchalarni hosil qiladi. Shu bois ma'naviy-axloqiy madaniyat huquqiy madaniyatni shakllantirishda birlamchi ahamiyatga egadir.

Axloq borada sharq xalqlarining o'z tushunchalari mavjud. U milliy tarixga, azaliy qonun-qoidalarga asoslanadi. Mir Alisher Navoiyning safdoshi va shogirdlaridan biri Husayn Voiz Koshifiy "Ijtimoiy axloqiy fazilatlarni yuzaga chiqarishning asosiy vositasi" deb ilm-ma'rifat bilan axloqiy tarbiyani ko'rsatadi. Uning "Insonning qadr-qimmati uning mol-mulki yoki ijtimoiy kelib chiqishi bilan emas, balki uning ma'naviy qiyofasi, axloqiy sifatlari bilan o'lchanadi", - degani ham bejiz emas.²

Zamondoshlarimizda axloqiy madaniyatni shakllantirish ishida bugun xalqimizning asrdan-asrga o'tib kelayotgan og'zaki ijodi, milliy urf-odatlari, an'analari va marosimlar, hadislar, sharq xalqlari mutafakkirlarining asarlaridan foydalanish mavrudi kelganligi shubhasizdir. Fuqarolarning xulqi, axloqi, shubhasiz, ularning xatti-harakatlariga, ichki madaniyatiga, irodasiga, jamoat joylarida o'zini tuta bilishiga ta'sir etishi tabiiydir. Ular axloqiy normalar mohiyatini tushuna borib axloqiy madaniyatga erishadi va qonun-qoidalarga hurmat bilan qaray boshlaydi. Kishilar faoliyatidagi axloqiy normalariga talab kuchayib borishi natijasida har bir shaxsning ongi, madaniyati takomillashib boradi. Intizom shunday jarayonda madaniyat bilan axloqni bog'lovchi mezonga aylanadi. Zero, intizom o'zida axloqiy madaniyatning barqarorligini ta'minlaydi. Zero, alloma Abdulla Avloniy ta'biri bilan aytganda, "Intizom deb qiladurg'on ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o'z vaqtida tartibi ila qilmoqni aytيلur. Agar yer yuzida intizom bo'lmasa edi, insonlar bir daqiqa ishonmas edilar"³.

² Xусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний. –Тошкент: Маънавият. 1996. -26 6.

³ Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2 томлик. –Тошкент: Маънавият. 1998. Т.1. -52 6.

Axloqiy madaniyat ma'lum darajada qolipga solingan, qotib qolgan tizim bo'lmay, inson faoliyatini barcha tarmoqlari bilan bog'liq bo'lgani uchun shaxsnинг yangicha axloqiy ongini rivojlantirish ma'naviy islohotlarda katta ahamiyat kasb etadi.

Buning uchun umummamlakat miqyosida juda katta ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Chunki axloqiy tafakkuri va madaniyati rivojlangan shaxs o'z xalqi tarixi, ma'naviy merosi va bugungi ijtimoiy taraqqiyotiga befarq bo'lmaydi. O'z hayoti va faoliyatini Vatan taraqqiyoti va istiqboli bilan chambarchas bog'laydi, o'zini millat, mamlakat va ijtimoiy-tarixiy hayotdan chetda tasavvur etmaydi.

